




O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING OILA KODEKSI



Oila – bu ota, ona, bolalar va boshqa yaqin insonlardan iborat bo'lgan, qonun bilan tan olingan birlashma.



Oilada ota-ona bolani boqishi, tarbiyalashi va himoya qilishi shart, bola esa ularni hurmat qilishi kerak.



Oilada hammaning huquq va majburiyatlari bor va ular qonunlar bilan himoyalanaadi.

Ana shunday qonunlarning eng asosiysi Oila kodeksidir.

Oila kodeksi – bu oilada kim nima qilishi kerakligini aytib beradigan muhim qoidalar kitobi. Unda ota-onalar, bolalar, qarindoshlar va davlatning qanday huquqi borligi va nimalarga mas'ul ekanligi yozilgan.



- ✓ Kodeksda **bolalarning huquqlari** yozib qo'yilgan.
- ✓ Unga ko'ra, bolalar oilasi bilan birga yashashi va tarbiya olishi mumkin.
- ✓ Ota-onasi va boshqa qarindoshlari bilan ko'rishish huquqiga ega.
- ✓ Agar bolaga biror zarar yetkazilsa, uni himoya qilishlari kerak.
- ✓ Bolada o'z fikrini ayta olish, o'zining ismi, otasining ismi va familiyasiga ega bo'lish huquqi bor. Agar kerak bo'lsa, ismi va familiyasini o'zgartirishi ham mumkin.
- ✓ Bola o'z mulkiga ega bo'lish, uni boshqarish va undan foydalanish huquqiga ega.
- ✓ Ota-ona bolasini boqishi va kerakli narsalar bilan ta'minlashi kerak. Agar ota yoki ona bolaga o'z vaqtida yordam bermasa, sud ulardan aliment olib berishi mumkin.



Kodeksga ko'ra, oilada ayol ham, erkak ham **bir xil huquqlarga ega**, ya'ni ular teng hisoblanadi.

Bundan tashqari, Kodeksda ota-onalar qanday qilib turmush qurishi yoki ajrashishi, oiladagilar bir-biriga qanday yordam berishi, bolalarni farzandlikka olish va tarbiyalash qoidalari ham yozilgan.



Ayollar va erkaklar 18 yoshga to'lganidan keyin oila qurishlari mumkin. Kimnidir oila qurishga majburlash mumkin emas.